



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI
B U Y R U Q**

“5” 01 2021 yil.

Nº 1/1

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 27-noyabrdagi PF-5729-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, vazirlik va uning tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni samardorligini oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2021-2022-yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha odob-axloq komissiyasi tarkibi

2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyasi to'g'risidagi nizom

3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Barcha departament, boshqarma va mustaqil bo'limlar tomonidan vazirlik faoliyati doirasida 2021-2022-yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat dasturining har bir bandi bo'yicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqib va Idoralararo komissiya bilan kelishish uchun kiritilsin.

3. Vazir o'rindbosarlari, departament direktorlari, mustaqil boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tizimdagи tashkilotlar hamda hududiy bosh boshqarmalar boshliqlari tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish Bosh boshqarmalari hamda tizimdagи boshqa tashkilotlar 10 kunlik muddatda mazkur buyruq asosida o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarini qabul qilsinlar.

5. Vazir o'rinnbosarlari, barcha departament direktorlari hamda mustaqil boshqarma va bo'lim boshliqlari Vazirlik markaziy apparatining barcha xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga amal qilinishi bo'yicha qat'iy nazoratni o'rnatsinlar.

6. Axborot xizmati (D.Jurayeva) ushbu buyruqning vazirlik rasmiy web-saytiga va boshqa vazirlik ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilishini ta'minlasin.

7. Devonxona (A.Mingboev) ushbu buyruqning vazirlik markaziy apparati xodimlari, hududiy bosh boshqarmalar va tizimdagи tashkilotlar rahbarlari e'tiboriga etkazilishini ta'minlasin.

8. Ijro intizomi va Davlat dasturlarini monitoring qilish boshqarmasi (J.Eshboyev) buyruq bilan belgilangan vazifalar ijrosini qat'iy nazoratga olsin.

9. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2021-2022-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Vazirlik faoliyati doirasida belgilangan vazifa va chora-tadbirlar ishlarini muvofiqlashtirish Yuridik departamentning Sud da'volarini yuritish va shartnomaviy-huquqiy sho'basi mudiri vazifasini vaqtincha bajaruvchisi B. Nabihev zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

D. Kuchkarov



O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 20^{df} yil 05.01 dagi
1/1-son buyrug'iga
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining
2021-2022-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirish mehanizmi	Mas'ul ijrochilar
1.	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan yoki kelishib berayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihamini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	Muntazam	Yuridik ekspertizadan o'tkazish	Yuridik departament (S.Qo'ychiyev)
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish Bosh boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilayotgan hujjatlar loyihamini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	Muntazam	Yuridik ekspertizadan o'tkazish	Hududiy Bosh boshqarmalar Yuridik xizmati
3.	Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan hujjatlar loyihamini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	Muntazam	Yuridik ekspertizadan o'tkazish	Tizimdagи tashkilotlar Yuridik xizmati
4.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konferensiya, seminar, trening, davra suhbatlarini tashkil etish va o'tkazish.	Har chorakda	Tegishli chora-tadbirlar o'tkazish	Vazir o'rribosari (O.Rustamov), Yuridik departament (S.Qo'ychiyev), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov)
5.	Vazirlik xodimlarining o'z mansab vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha korruption holatlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, shuningdek, ular tomonidan mansab vakolatiga kiruvchi vazifalarni moddiy yoki boshqa manfaatdorlik orqali amalga oshirilishining oldini olish.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o'tkazish	Vazir o'rribosari (O.Rustamov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo'ychiyev)
6.	Vazirlik xodimlari o'rtasida ularning lavozim funksiyasiga kiruvchi nizoli munosabatlarning	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o'tkazish	Komissiya

	kiruvchi nizoli munosabatlarning oldini olish va ularni nazorat qilish.			
7.	Korrupsion holatlarning oldini olish uchun xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirishni tashkil qilish.	Zaruratga ko'ra	Tegishli chora-tadbirlar o'tkazish	Vazir o'rribosari (O.Rustamov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov)
8.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun talablarini bajarish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan vazirlikka kelib tushayotgan korrupsiyaviy holatlar aks ettirilgan murojaatlarni aniqlash va ularning to'g'ri hal qilinishi choralarini ko'rish.	Chora-tadbirlar davrida	Iqtisodiy, yuridik va korrupsiyaviy holatlar bo'yicha ekspertizadan o'tkazish	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi (B.Saparboev), Barcha departament, boshqarma va bo'limlar rahbarlari, Yuridik departament (S.Qo'ychiyev)
9.	Vazirlik markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalar va tizimdagi tashkilotlar xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga amal qilinishi va korrupsiyaga qarshi yalpi kurashish bo'yicha boshqa monitoringlarni o'tkazib borish va natijasini har chorak birinchi oyining 15 sanasiga qadar Bosh prokuraturaga yuborish.	Har chorakda	Umumlashtirilgan ma'lumotni vakolatli organga yuborish	Vazir o'rribosari (O.Rustamov), Sud da'volarini yuritish va shartnomaviy-huquqiy sho'basi (B. Nabihev)
10.	Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sherikchilikni yanada rivojlantirish hamda ular bilan yaqindan hamkorlik qilish choralarini ko'rish.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o'tkazish	Vazirning birinchi o'rribosarlari (S.Xolxo'jayev, I.Norqulov), Vazir o'rribosarlari (O.Rustamov, B.Abdinazarov, A.Boboev), Barcha departament, boshqarma va bo'limlar rahbarlari, Hududiy bosh boshqarmalar va tizimdagi tashkilotlar
11.	Vazirlik va uning tizimida huquqbazarliklar va ularga sharoit yaratuvchi omillar haqida xabar berishga imkoniyat yaratuvchi yagona portal-tizimni tashkil etish va ishga tushirish.	2021 yil 1 iyul	Tegishli yagona portal-tizimni tashkil etish va ishga tushirish	Vazir o'rribosari (O.Rustamov), Axborot texnologiyalari va xavfsizligi boshqarmasi (O.Karimov), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi

				(B.Saparboev), Inson kapitalini rivojlantirish departamenti (A.Davletyarov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘chiyev)
12.	Vazirlik tomonidan mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan tasdiqlangan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish.	Muntazam	Tegishli axborotlarni hujjatlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish	Axborot xizmati (D.Jurayeva)
13.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiqib va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlarni o‘rgangan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish.	Grafik asosda	Tegishli choratadbirlar o’tkazish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi (B.Saparboev), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘chiyev)
14.	Vazirlik markaziy apparati, Vazirlik hududiy bosh boshqarmalari va tizimdagи tashkilotlar mablag‘laridan samarali foydalanish va xaridlar bo‘yicha tartib va doimiy monitoring olib borish siyosatini ishlab chiqish.	2021 yil 1 avgust	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish	Ishlar boshqarmasi (D.Yuldoshxo‘ja), Buxgalteruya (O.Jurayev), Yuridik departament (S.Qo‘chiyev)
15.	Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining bayonnomalarida belgilangan topshiriqlarning ijrosi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston	Muntazam	Umumlashtirilgan ma’lumotni vakolatli organiga yuborish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), barcha departament, boshqarma va mustaqil bo‘lim rahbarlari, Sud da’volarini yuritish va shartnomaviy-

	Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi so‘roviga asosan o‘z vaqtida va sifatli yuborilishini ta‘minlash.			huquqiy sho‘basi (B. Nabihev)
16.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o‘tkazish	Vazirning birinchi o‘rinbosari (I.Norqulov), Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlari departamenti (Sh.Matkarmov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov)
17.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlardan kelib chiqib va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlarni o‘rgangan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish.	Grafik asosda	Tegishli sohaga doir holat bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo‘limi (B.Saparboev), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
18.	Vazirlikning rasmiy veb-sayti asosida xalqaro standartlarga muvofiq zarur ma’lumotlarni kiritib borish, shu jumladan: korrupsiyaga qarshi tadbirlar haqida hisobot va ma’lumotlar; korrupsiyaning tarqalishi va idrok etilishi haqida ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari; normativ-huquqiy hujjatlarning loyihasi bo‘yicha korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari to‘g‘risida ma’lumot; ma’lumot, metodik va axborot materiallari; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni muhokama qilish uchun jamoatchilik bilan qayta aloqa mexanizmlari, shuningdek jamoatchilik fikrini so‘rov qilish natijalari.	Muntazam	Tegishli axborotlarni hujjatlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), Axborot xizmati (D.Jurayeva), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev), tegishli sohaga mas‘ul departament, boshqarma va bo‘limlar
19.	Vazirlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni	2022 yil 1 fevral	Ilg‘or chet el tajribasini	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov),

	amalga oshirish jarayonida, shu jumladan xalqaro ekspertlar ishtirokida seminarlar, “davra suhbatlari” va konferensiyalar o’tkazishni nazarda tutadigan xalqaro mezonlar va ilg’or chet el tajribalarini joriy etish.		o’rgangan holda asoslatirilgan takliflar ishlab chiqish va rahbariyatga kiritish	Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlari departamenti (Sh.Matkarov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov)
20.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Vazirlik markaziy apparati bilan hududiy bosh boshqarmalar va tizimdagi tashkilotlar, shuningdek, idoralararo komissiyalar samaradorligini oshirish, shu jumladan: korrupsiyaga ko‘proq moyil bo‘lgan sohalarni aniqlash; xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish; davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy koordinatorlarning o‘zaro hamkorligi; barcha darajadagi davlat organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan korrupsiyaga oid huququzarliklarni, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda natijasini Bosh prokuraturaga yuborish.	2021 yil 1 martgacha Idoraviy normativ hujjat asosida	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), barcha departament, boshqarma va mustaqil bo‘lim rahbarlari, Sud da’volarini yuritish va shartnomaviy-huquqiy sho’basi (B. Nabihev)
21.	Vazirlik bilan jamoatchilik o’rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, vazirlikning ishonch telefonlarining ish samaradorligi monitoringini ta’minlash.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o’tkazish	Vazirning birinchi o‘rinbosarlari (S.Xolxo‘jayev, I.Norqulov), Vazir o‘rinbosarlari (O.Rustamov, B.Abdinazarov, A.Boboev), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan

				ishlash bo‘limi (B.Saparboev), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
22.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yangi xavf-xatar va tahdidlarni hisobga olgan holda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik jihozlanishini takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Bosh prokuratura taklif kiritish.	Zarur hollarda	Umumlashtirilgan ma‘lumotni vakolatli organga yuborish	Vazir o‘rbosarlari (O.Rustamov, B.Abdinazarov, A.Boboev), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
23.	Barcha xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tashkiliy tizim faoliyati bilan tanishtirish hamda xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha majburiyatlarni qayd etish.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o’tkazish	Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov)
24.	Vazirlik markaziy apparati va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens nazorat” tizimini joriy etish uchun tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rish.	2021 yil 1 avgust	Tegishli tashkiliy chora-tadbirlar o’tkazish	Barcha departament, boshqarma va mustaqil bo‘limlar rahbarlari, Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
25.	Vazirlik tizimdagi tashkilotlar faoliyatini hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqish, tizimdagi mavjud korruption holatlar va ularning kelib chiqish sabablarini hamda muammolarini aniqlash	2022 yil 1 yanvar	Tegishli chora-tadbirlar o’tkazish	Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev), Barcha departament, boshqarma va mustaqil bo‘limlar rahbarlari
26.	Yashirin faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, shu jumladan “Sovg‘a”, “pora”, va boshqa manfaatli bitim hamda takliflarga oid aniq mezonlarni belgilab beruvchi, ya’ni sovg‘alarni qabul qilish hamda mehmondo‘stlik taomillarini tartibga solish bo‘yicha tartib ishlab chiqish.	2022 yil 1 yanvar	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish	Barcha departament, boshqarma va mustaqil bo‘limlar rahbarlari, Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
27.	Malakali xodimlarni tayyorlash va ularda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.	Muntazam	Tegishli chora-tadbirlar o’tkazish	Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
28.	Vazirlik markaziy apparatida	2021 yil	Tegishli tuzilmani	Vazirning birinchi

	Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens nazorat” tizimiga mas’ul va to‘g‘ridan to‘g‘ri Vazirlik rahbariyati bo‘ysinuvida bo‘lgan yangi tuzilmani tashkil etish bo‘yicha taklif kiritish.	1 iyul	tashkil etish bo‘yicha rahbariyatga taklif kiritish	o‘rinbosarlari (S.Xolxo‘jayev, I.Norqulov), Vazir o‘rinbosarlari (O.Rustamov, B.Abdinazarov, A.Boboev), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Yuridik departament (S.Qo‘ychiyev)
29.	Pora berilishi haqida xabar qilgan vazirlik markaziy apparati, tizimdagi tashkilotlar xodimlari, shuningdek korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar haqida tasdiqlangan xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.	2021 yil 1 dekabr	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti (A.Fazilov), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi (B.Saparboev)
30.	2021-2022 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturining ijro etilishi holati to‘g‘risida har chorakda Idoralararo komissiyaga axborot kiritilishini ta’minalash.	Har chorakda	Umumlashtirilgan ma’lumotni vakolatli organga yuborish	Vazir o‘rinbosari (O.Rustamov), Sud da’volarini yuritish va shartnomaviy- huquqiy sho’basi (B. Nabihev)

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy
taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish
vazirligining 20²¹ yil 05.01 dagi
11-son buyrug‘iga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish
vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiyasi
TARKIBI**

1. Xolxo‘jayev Saidqahhor — Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rnbosari, komissiya raisi
Muhammadkarim o‘g‘li
2. Rustamov Olimxon — Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri o‘rnbosari, komissiya raisi o‘rnbosari
Bakievich
3. Umrzakov Ilxomjon — Makroiqtisodiy siyosat, tahlil va prognozlashtirish departamenti direktori
Urinbaevich
4. Raximov Voxid — Hududlarni kompleks rivojlantirish departamenti direktori
Sanaqulovich
5. Fazilov Azamat — Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish departamenti direktori
Shuxratovich
6. Egamov Boburbek — Davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va tahlil qilish departamenti direktori v.v.b.
Davlatnazarovich
7. Matkarimov Shuxrat — Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlari departamenti direktori v.v.b.
Tulibaevich
8. Saparboev — Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i v.v.b.
Bekmurodbek Sherzod
o‘g‘li
9. Karimov Otabek — Axborot texnologiyalari va xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i v.v.b.
Eshmamatovich
10. Yuldashev Doniyor — Ishlar boshqarmasi boshlig‘i v.v.b.
Xamidjon o‘g‘li
11. Nabihev Boburbek — Yuridik departamentning Sud da‘volarini yuritish va shartnomaviy-huquqiy sho’basi mudiri v.v.b.
Toxirjon o‘g‘li
komissiya kotibi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa lavozimga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy
taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish
vazirligining 20~~21~~ yil 05.01 dagi
~~11~~-son buyrug‘iga
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish
vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga barcha vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo‘limlari, tizimdagisi tashkilotlar va hududiy boshqarmalar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

2. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjalari amal qiladi.

3. Komissiya o‘z faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

2-bob. Komissyaning asosiy vazifalari

4. Komissyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatida ishtirok etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo‘limlari, tizimdagisi tashkilotlar va hududiy boshqarmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilgan jamoatchilik nazoratining amaliy choralarini va qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarning joriy holatini tahlil qilish;

korrupsiyaga va boshqa jinoyatlarga qarshi tizimli kurashish sohasida huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, shu jumladan ichki idoraviy nazoratni amalga oshiradigan bo'linmalar faoliyatini tanqidiy o'rganish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va mazkur sohada idoralararo hamkorlik qilish, shuningdek, korrupsiya ko'rinishlarini sodir etish sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanilayotgan mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va jamoat nazorati sohasida umum e'tirof etilgan xalqaro standartlar va chet el ijobiy tajribasini o'rganish;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash.

3-bob. Komissiyaning huquq va majburiyatları

5. Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo'limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo'limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalaridan Komissiya vakolatiga taalluqli bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

tegishli vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo'limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo'limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalar rahbarlarining hisobotlarini va ma'ruzalarini eshitish;

Komissiya faoliyatining muhim masalalari yuzasidan o'rganishlar o'tkazish va takliflar tayyorlash uchun ishchi komissiyalar va (yoki) ekspert guruhlari tuzish, shuningdek ushbu komissiyalar va guruhlar ishiga mutaxassislarini jalb etish.

Komissiya vazirlik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. Komissiya quyidagilarga majbur:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha qarorlarini ijro etish;

Komissiya tomonidan qabul qilingan qarolarning o'z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazoratni va monitoringni amalga oshirish.

Komissiyaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

4-bob. Komissiya ishini tashkil etish

7. Komissiyaning shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambahallikni qisqartirish vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

8. Komissiya faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o‘z majlislarini zaruratga qarab, ammo chorakda kamida bir marta o‘tkazadi.

Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan komissiya a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Komissiya qarorlari majlisda ishtirok etgan Komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan, Komissiya raisi yoki uning o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomani imzolashda Komissiya a’zolari alohida fikr bildirish huquqiga ega.

9. Komissiya majlislariga vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo‘limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

10. Komissiyaning ishchi organi funksiyasini Yuridik departament amalga oshiradi.

Ishchi organ quyidagilarni amalga oshiradi:

Komissiya ish rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek Komissiyaning kundalik faoliyatini tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkil etish;

vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma, bo‘limlari, tizimdagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalar bilan birgalikda Komissiyaning qabul qilingan qarorlari ijrosini nazorat va monitoring qilish, Komissiya raisiga tegishli axborot va takliflarni kiritish;

kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko‘rib chiqish va Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasiga korrupsiyaga qarshi kurashishga imkon beradigan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlanishini va kiritilishini tashkil etish.

Ishchi organ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.